



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI  
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR  
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xoshimova Zarnigor Shavkat qizi

*Samarqand shahri 71-maktab o'qituvchisi*

BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI YANADA  
YAXSHILASHDA O'QITUVCHI OLDIDAGI VAZIFALAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqola boshlang'ich ta'lism sifatini oshirish va boshlang'ich ta'lism sifatini yanada yaxshilashda o'qituvchi oldidagi vazifalar haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlari:** Pedagogik texnologiya, innovatsion usul, mediatexnologiya, interfaol usul, taqvim-mavzu rejalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, darsliklar, tavsiyalar, dars ishlanmalar.

Davlat ta'lism standartlarida ko'rsatilgan talablarni bajarish, darslarni qiziqarli tashkil etish o'qituvchidan katta mahorat, ziyraklik, yuksak did, ijodiy faoliyat, tinimsiz mehnat talab qiladi.

Mamlakatimizda ta'lism tizimini yanada takomillashtirish va yangiliklarni amaliyotga joriy etishda muhim ishlar amalgam oshirilmoqda.

Boshlang'ich ta'lism barcha ta'lism turlarining asosiy poydevori hisoblanadi. Shu bois, quyi sinflardanoq o'quvchilar chuqur bilim egallab, uni kundalik hayotda qo'llay olish, o'z- o'zini boshqarish, jamoada o'zini tutish kabi ko'nikmalarni to'liq shakllantirishga erishish zarur.

Boshlang'ich ta'lism sifatini yaxshilashda pedagoglardan ilg'or tajribalar asosida o'qitish jarayoniga innovatsion usullarni, mediatexnologiyalarni joriy etish talab qilinadi.



Ta’lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining malakasini oshirish va olgan zamonaviy bo‘limlarini darslarda turli usullar bilan qo‘llashiga erishish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kompyuterdan foydalanish ko‘nikmasi, internetda ishslash malakalari bo‘lishi, undan o‘quv portaliga kirish ishlarini bajara olish malakasi bo‘lishi kerak. O‘quv portalidagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun ta’lim tizimidagi yangiliklar, maqollar, taqvim-mavzu rejalar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, darsliklar, tavsiyalar, mashg‘ulot va dars ishlanmalari, tadbir ssenariylari, ilmiy-ommabop hamda badiiy adabiyotlardan foydalanish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilariga interfaol usullarda dars berishdir.

Interfaol usullar asosida o‘tilgan dars mashg‘ulotlarida o‘qituvchi ta’limning o‘zaro mas’uliyatlilik, yuzma-yuz o‘tirish, ijtimoiy malakalar va baholash elementlaridan foydalanadi.

Sinf o‘quvchilarining hamkorlikdagi faoliyati natijasida bir -biridan yordam so‘rash, yordam berish, o‘zaro qo‘llab- quvvatlash, juft bo‘lib guruhlarda ishslash, o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, o‘zi, sherik guruhi, sinfi uchun javob berish, vazifalarga ma’suliyat bilan yondashish, “Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun” shiori ostidagi mas’ullik hissini rivojlantirish, o‘zaro fikrlashib, bahslashib qaror qabul qilish, bir-birini eshitish, tinglash qobiliyatları aniqlanadi. Natijada ularda rasm chizish, tez yozish, og‘zaki nutqning rivojlanishi, mustaqil qaror qabul qilishi, qarorlarini himoya qila olish ko‘nikmalari shakllanadi.

Interfaol usullarda tashkil etilgan darslarda sinfdagi holat butunlay boshqacha tus oladi, o‘quvchilar o‘zlarini erkin tutadilar. Stol-stullarning joyini o‘zgartirish ham o‘quvchilar diqqatini tortadi.

Bugungi kun o‘qituvchisi faqatgina darslikdan foydalanib qolmasdan, har bir dars uchun o‘zi ham kichik kashfiyotlar yaratish kerak. Chunki zamon ilgarilab borayotgan bugungi davr bolasini qirq besh daqiqalik dars mobaynida diqqatini faollashtirib bilim berish- murakkab jarayon. Shuning uchun bolalarga turli ko‘rgazmalar va o‘yinlar orqali ta’lim berish ularning nutqi rivojlanishiga va fikr doirasi kengayishiga imkon beradi. Mavzuni idrok etish osonlashadi va hech kim zerikmaydi. Fikrlay olish bolalar o‘yinlarida ham, o‘qishda, mehnatda ham rivojlanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy talabalaridan biri har bir dars jarayonida turli mazmunli, dars mohiyatini ochib beruvchi, o‘quvchilarni zerikarli tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantira oladigan o‘yinlardan foydalanib ularning mustaqil fikrkash qobiliyatini fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishdan iborat.

O‘qituvchi o‘yinlar va ko‘rgazmalarga suyanib ish ko‘rsa, o‘quvchilada darsga qiziqish uyg‘onib darsni o‘zlashtirish oson bo‘ladi. Eng asosiysi, darsda samaradorlikka erishiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llash metodikasini yaxshi egallashlari o‘z faoliyatida ulardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.



Bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang‘ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo‘yilishini oddiy mantiqning o‘zi talab etadi.

Hozirda ta’lim sohasida qilinayotgan katta o‘zgarishlar, o‘quvchilarga va o‘qituvchilarga qilinayotgan e’tibor ustozlarni yanada ruhlantirib o‘z kasbiga loyiq bo‘lishga undaydi.

Malaka oshirish oliygochlari bu sohada o‘qituvchiga yaxshi ko‘makdoshdir. O‘z ustida ishlashga , bilmagan narsalarini o‘rganishga, tajriba almashishga katta yordam bermoqda. Hozirgi vaziyatda uzluksiz kasbiy ta’limlar, masofaviy ta’lim olishda o‘qituvchilar ko‘p narsani o‘rganmoqda. Bu o‘rgangan narsalarini albatta ta’lim jarayonida qo‘llaydilar.

Demak, boshlang‘ich ta’lim sifatini yaxshilashda o‘qituvchilar mahoratini uzluksiz oshirishi, o‘quv-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va mediatexnologiyalarni joriy etishi lozimdir. Donishmandlarimiz aytgandek: “O‘qitish ikki barobar o‘qish demakdir.”

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Innovatsiya ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To’raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015 yil
2. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011 yil
3. Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. –T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012 yil.